MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TIZIMIDA INSON QADRINING AKSIOLOGIK MOHIYATI

Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:
Mazkur maqolada inson qadrining aksiologik mohiyati milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi kontekstida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson qadri jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoni sifatida baholanib, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Shuningdek, inson qadrining shaxs kamoloti, fuqarolik jamiyati rivoji va demokratik institutlar faoliyatidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *inson qadri, aksiologiya, qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlari, ma’naviyat, demokratik taraqqiyot*.

KIRISH

XXI asrda inson omili va uning qadr-qimmatini ta’minlash masalasi davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi zamonaviy demokratik taraqqiyotning asosiy tamoyili sifatida e’tirof etilib, barcha ijtimoiy-siyosiy islohotlarning markaziga inson manfaatlarini qo‘yishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan inson qadrining aksiologik mohiyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi asosida o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Aksiologik yondashuvga ko‘ra, qadriyatlar insonning borliqqa, jamiyatga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilovchi mezonlar tizimidir. Inson qadri esa mazkur tizimning markaziy elementi bo‘lib, shaxsning huquq va erkinliklari, ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi hamda jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi orqali namoyon bo‘ladi.

Sharq mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy asarlarida inson kamoloti va komil inson g‘oyasi markaziy o‘rin tutgan bo‘lsa, G‘arb falsafasida I.Kant, M.Sheler, N.Gartman va boshqa mutafakkirlar insonning ichki qadr-qimmati va axloqiy mohiyatini qadriyatlar tizimining negizi sifatida talqin qilganlar.

Inson qadri va qadriyatlar muammosi aksiologiya fanining asosiy tadqiqot obyektlaridan biridir. I.Kantning inson qadr-qimmati haqidagi qarashlari zamonaviy aksiologik tafakkur rivojida muhim o‘rin tutadi. Faylasuf insonni «o‘zida maqsad» sifatida talqin qilib, uning sha’ni va qadr-qimmatini har qanday ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy manfaatlardan ustun qo‘yadi. Kant nazariyasiga ko‘ra, insonning qadri uning foydaliligi bilan emas, balki axloqiy erkinligi va aql-idrokka ega mavjudot sifatidagi mohiyati bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv bugungi kunda inson huquqlari va umuminsoniy qadriyatlar konsepsiyasining muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi [111]. Nemis faylasufi Maks Sheler qadriyatlarni insonning hissiy-intuitiv tajribasi orqali anglanadigan obyektiv ma’naviy mohiyat sifatida izohlaydi. U qadriyatlar ierarxiyasi nazariyasini ishlab chiqib, hissiy, hayotiy, ma’naviy va diniy qadriyatlarni bir-

[111] Kant I. *Groundwork of the Metaphysics of Morals.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 37–38.

biridan farqlaydi. Shelerning fikricha, inson qadri uning biologik yoki ijtimoiy mavqei bilan emas, balki ma’naviy kamoloti va oliy qadriyatlarni anglash darajasi bilan belgilanadi[112]. Hartmann N. inson qadriyatlarni obyektiv ma’naviy voqelik sifatida talqin qilib, ularning inson xulqi va axloqiy faoliyatini belgilovchi mezon ekanligini ta’kidlaydi[113].

Sharq falsafiy tafakkurida inson qadrini yoritishga doir qarashlar Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Fazl ibn Ahmad hamda jadid mutafakkirlari merosida keng o‘rin egallaydi. Xususan, Forobiy inson kamolotini fozil jamiyatning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatgan[114]. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson kamolotini fozil jamiyatning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatgan. Uning fikricha, jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi avvalo unda yashovchi insonlarning ma’naviy-axloqiy yetukligi, ilm-ma’rifatga intilishi hamda ezgu maqsadlar yo‘lida hamjihatlikda faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyatni tasvirlar ekan, unda har bir shaxs o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, jamiyat farovonligi yo‘lida xizmat qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Mutafakkir nazarida insonning haqiqiy baxt-saodatga erishishi ilm, axloq va adolat tamoyillariga amal qilish orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Forobiy inson qadr-qimmatini uning aqliy salohiyati, bilim darajasi va ezgu fazilatlari bilan bog‘laydi. U insonni jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida e’tirof etib, davlat va jamiyat boshqaruvi ham aynan inson manfaatlari hamda umumiy farovonlikni ta’minlashga qaratilishi zarurligini ilgari suradi. Shu ma’noda, Forobiy qarashlarida inson qadri va insonparvarlik g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi.

Mazkur yondashuv bugungi kunda inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, demokratik institutlarni rivojlantirish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarida muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Forobiy ilgari surgan fozil jamiyat konsepsiyasi inson manfaatlarini ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etuvchi zamonaviy demokratik tamoyillar bilan hamohangdir. Shu bois uning inson kamoloti, adolat va ezgulik haqidagi g‘oyalari inson qadrini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek Fazl ibn Ahmadning “Iddat ul Uqul” risolasida Sharq tafakkurining eng yuksak davrida yaratilgan bo‘lib, unda inson, aql, nur, nafs va komillik masalalari falsafiy, axloqiy va ma’naviy birlikda talqin etilgan[115]. Mutafakkirning ilmiy qarashlarini nafaqat tarixiy-falsafiy manba sifatida, balki zamonaviy falsafaning asosiy ontologik, gnoseologik va aksiologik tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etish asosida, u yaratgan falsafiy tizim inson tafakkurining o‘z-o‘zini anglash jarayonida aql, ilm va hikmatning tutgan o‘rnini belgilaydi, - deyish asosli[116].

---

[112] Scheler *M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values: A New Attempt toward the Foundation of an Ethical Personalism*. – Evanston: Northwestern University Press, 1973. – 620 p.

[113] Hartmann N. *Ethics*. Vol. I–III. – London*: Ge*orge Allen & Unwin Ltd., 1932. – P. 112.

[114] Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

[115] M.Saipova. Fazl ibn Ahmadning “iddat ul uqul” risolasidagi falsafiy g‘oyalarni tahlili. Avtoreferat. Buxoro 2025-yil. 29-30.

[116] M.Saipova. Fazl ibn Ahmadning “iddat ul uqul” risolasidagi falsafiy g‘oyalarni tahlili. Avtoreferat. Buxoro 2025-yil. 29-30.

Mustaqillik yillarida inson qadri masalasi O‘zbekiston olimlari tomonidan ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan tadqiq etilib, inson manfaatlari va huquqlarini ta’minlashning nazariy asoslari ishlab chiqildi[117]. Mustaqillik yillarida inson qadri masalasi O‘zbekiston olimlari tomonidan ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan keng tadqiq etilib, inson manfaatlari va huquqlarini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqildi. Bu borada insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, uning huquq va erkinliklarini kafolatlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish masalalari ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo‘yishning konseptual asoslarini belgilab berdi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, barcha islohotlarning bosh maqsadi insonning munosib hayot kechirishi, huquq va erkinliklarining ta’minlanishi hamda uning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir[118].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan inson qadri, demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat masalalari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda o‘rganilib, inson qadrini ta’minlashning falsafiy, siyosiy va ma’naviy omillari tahlil qilingan. Jumladan, inson qadrining ijtimoiy mohiyati, uning erkinligi, mas’uliyati va ijtimoiy faolligi demokratik taraqqiyotning muhim sharti sifatida talqin etilgan[119].

Shuningdek, inson qadri jamiyatdagi adolat, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya va ma’naviy yuksalish bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida baholanadi[120].

Bugungi kunda inson qadrini ta’minlash masalasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning nazariy va amaliy asoslarini chuqur tadqiq etish ijtimoiy-falsafiy fanlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va boyitadi. Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, urf-odatlari va an’analari asosida shakllansa, umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyat tomonidan e’tirof etilgan va umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy, huquqiy hamda ma’naviy tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli mazkur qadriyatlar o‘rtasida qarama-qarshilik emas, balki dialektik uyg‘unlik va o‘zaro ta’sir mavjuddir[121].

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, har bir milliy qadriyatning negizida umuminsoniy mazmun mujassam bo‘ladi. Masalan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra insonparvarlik, adolat va o‘zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarning milliy shakldagi ifodasi hisoblanadi[122]. Shu bois milliy

[117] Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati, 2011.

[118] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 38–42.

[119] Nazarov Q., G‘aniyev B., Abdullayev A. va boshqalar. Falsafa: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – B. 412–425.

[120] Tulenov J., G‘ofurov Z. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 185–198.

[121] Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – B. 58–61.

[122] Forobiy A.N. *Fozil odamlar shahri.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 124–128.

qadriyatlarning rivojlanishi umuminsoniy qadriyatlardan uzilgan holda emas, balki ular bilan uyg‘unlikda kechadi.

Inson qadri ana shu ikki qadriyat tizimini birlashtiruvchi asosiy aksiologik mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki milliy qadriyatlar ham, umuminsoniy qadriyatlar ham o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra inson manfaatlari, huquqlari, erkinligi va ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi. Inson qadrini e’zozlash milliy qadriyatlarning ham, umuminsoniy qadriyatlarning ham bosh maqsadini tashkil etadi[123].

Milliy qadriyatlar tizimida inson qadrining mohiyati.

Milliy qadriyatlar muayyan xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, madaniyati va ma’naviy merosi asosida shakllanadi. O‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, oilaparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlar muhim o‘rin tutadi.

Milliy qadriyatlar insonning o‘zligini anglashiga, ma’naviy kamol topishiga va jamiyatdagi ijtimoiy mas’uliyatini his etishiga xizmat qiladi. Shu sababli inson qadri milliy qadriyatlarning bosh mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar tizimida inson qadri.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan va barcha xalqlar tomonidan tan olingan qadriyatlardir. Erkinlik, adolat, tinchlik, inson huquqlari va tenglik ana shunday qadriyatlar jumlasidandir.

Inson huquqlarini himoya qilish, uning sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash zamonaviy demokratik davlatlarning bosh maqsadiga aylangan. Shu jihatdan inson qadri umuminsoniy qadriyatlarning markaziy kategoriyasi hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson qadri milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining markaziy aksiologik kategoriyasi sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat shaxsning huquq va erkinliklari, balki uning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan inson qadri barcha qadriyatlarning mazmun-mohiyatini belgilovchi fundamental mezon hisoblanadi. Milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida uzviy dialektik bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va madaniy tajribasini aks ettirsa, umuminsoniy qadriyatlar insoniyat tomonidan e’tirof etilgan erkinlik, adolat, tinchlik, inson huquqlari va bag‘rikenglik kabi universal tamoyillarni ifodalaydi. Ushbu qadriyatlarning uyg‘unligi inson qadrini ta’minlashning muhim ijtimoiy-falsafiy asosini tashkil etadi.

Shu munosabat bilan inson qadrini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarining bu boradagi rolini kuchaytirish hamda insonparvarlik tamoyillarini ijtimoiy amaliyotga yanada chuqurroq tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, inson qadri milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtiruvchi universal aksiologik mezon sifatida jamiyat taraqqiyoti, demokratik yangilanish va ma’naviy

[123] Qambarov A.A. O‘zbekistonda ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023. – B. 22–25.

yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 38–42.
2. I.Kant. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 37–38.
3. Max Scheler. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values: A New Attempt toward the Foundation of an Ethical Personalism. – Evanston: Northwestern University Press, 1973. – 620 p.
4. N.Hartmann. Ethics. Vol. I–III. – London: George Allen & Unwin Ltd., 1932. – P. 112.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
6. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – B. 58–61.
7. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 124–128.
8. Qambarov A.A. O‘zbekistonda ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023. – B. 22–25.
9. Nazarov Q., G‘aniyev B., Abdullayev A. va boshqalar. Falsafa: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – B. 412–425.
10. Tulenov J., G‘ofurov Z. Ijtimoiy falsafa. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 185–198.
11. M.Saipova. Fazl ibn Ahmadning “iddat ul uqul” risolasidagi falsafiy g‘oyalarni tahlili. Avtoreferat. Buxoro 2025-yil. 29-30.